

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

SALOXIDDIN AZIZBOYEV

ANSAMBL SINFI

5150700 – Cholg‘u ijrochiligi: An’anaviy cholg‘u ijrochiligi

*Oliy ta’lim muassasalari uchun
o‘quv qo‘llanma*

Toshkent
2017

Mazkur o'quv qo'llanma musiqiy san'at yo'nalishidagi OTM larida ansambl sinfi bo'yicha saboq olayotgan bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma fan dasturi asosida yaratilgan bo'lib, unda talabalarning jo'rnavozlik, ansambl bo'lib ijro etishlariga oid asosiy ma'lumotlar bayon etilgan.

Mas'ul muharir: - S. BEGMATOV – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar: R.QOSIMOV – O'zbekiston davlat konservatoriyasi
professori
O'.RASULOV – O'zbekiston xalq artisti, dotsent

Данное учебное пособие предназначено для студентов бакалавриатов, обучающиеся по классу “Ансамблевого исполнения” в высших учебных заведениях.

Учебное пособие создано в соответствии с учебной программой данного предмета и в ней изложены основные сведения, касающиеся музыкального сопровождения и ансамблевого исполнительства.

Ответственный редактор: - С. БЕГМАТОВ – кандидат искусствоведения,
доцент.

Рецензенты: Р.КАСИМОВ – профессор Государственной
Консерватории Узбекистана.
У.РАСУЛОВ – доцент, народный артист
Узбекистана.

This teaching literature is meant for the students of Baccalaureate course of the High Educational Institutions, who are learning the subject of “Ensemble class”.

The teaching manual has been created according to the program of subject of “Ensemble class” and the main information's have been expounded for the students, who play the instruments, as an accompanist and ensemble performer.

Editor-in-chief: S.BEGMATOV – Candidate of Art criticism, Assistant
Professor.

Reviewers: R.KASIMOV – Professor of the State Conservatory of
Uzbekistan.
U.Rasulov – the public actor Uzbekistan, dotsent.

KIRISH

Bugungi shiddatli davr barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham jahonda kechayotgan o'zgarishlarga mos holda o'qitishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda tub islohotlar o'tkazilayotgan jarayonda, jamiyatimizda milliy madaniyat va san'at, ma'naviyat va ma'rifat hamda taraqqiyparvar omillariga alohida e'tibor berilmoqda. Otabobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan bebaho milliy qadriyatlarni va an'analarimizni imkoni boricha to'laroq tiklash, tarixiy-madaniy yodgorliklarimizni shu jumladan musiqiy merosimizni mufassal o'rganib borish, muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov, kadrlar masalasiga doir ma'ruzalarida, yoshlarimizni har tomonlama yetuk barkamol bo'lib yetishishlarida astoydil xizmat qilish har bir ustozning (qaysi kasb egasi bo'lmasin) eng dolzarb vazifasi bo'lishi hozirgi kunning ham talabi ekanligi, vatanparvar, fidoiy, har ishda tashabbuskor barkamol avlodni tobora shakllantirish, olingan bilimlarini to'la-to'kis keyingi yosh avlodlarga o'rgata boruvchi komil shaxsni tarbiyalash asosiy maqsadlardan biri ekanligi belgilab berilgan. Milliy musiqa, xalqimizning o'tmish hayotini so'z va ohanglardagi o'ziga xos ifodasidir. Keyingi paytda milliy o'zbek mafkurasini va milliy g'oya haqida ko'p gapirilmoqda. Milliy mafkura, unga asoslangan milliy g'oya xalq va millatni o'zligini, mintalitetini bir nuqtaga jamlab harakat dasturiga aylantiradigan hamda butun xalqning g'ayrat-shijoatini yagona maqsadga yo'naltiruvchi qudratli kuchdir. Shunday ekan, asl musiqa o'z ifodasini hech qachon yo'qotmaydi. Har tomonlama etuk va mohir sozanda, ijrochi yosh ansambl jamoasi faoliyatida sayqallanib, o'z tajribasiga ega bo'lib boraveradi.

Ansambli nima? Ansambli (fransuzcha ensemble - birgalikda)¹ ya'ni birgalikda ijro etish ma'nosini bildiradi. Ansamblning turli tarkiblari mavjud. Jumladan: vokal yoki cholg'u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi; bir guruh artistlarning bir butun badiiy jamoa holida chiqishi va h.k.

Ansambli atamasi yaxshi tuzilgan va yuksak ijrosi bilan ajralib turadigan badiiy jamoalarga nisbatan ham qo'llaniladi. Qolaversa, sodda qilib aytganda ansambli bir katta oiladir.

Shunday ekan, uning tarkibiga kiruvchi har bir sozanda-ijrochi alohida dunyo. Ijrochini kamolot sari intilishi uchun musiqiy asarlarni mohiyatini g'oyaviy va badiiy idrok etishi, o'z mahorati bilan cheklanib qolmay jamoadagi boshqa ijrochilarni ham qalban his etishi, o'zni kelganda jo'rnavozlik vazifasini bajarib borishi tarkibning eng asosiy vazifalaridandir.

O'z o'rnida tajribalardan kelib chiqqan holda, ansambli sinfini olib borayotgan ustozlar har bir cholg'uchining asarni to'la-to'kis ijrosiga alohida e'tibor berishi zarur. Chunki, talabalar orasida asarni to'liq yod olmaganlari ham uchrab turadi. "Guruch kurmaksiz bo'lmaganligi kabi", o'qituvchi ijro jarayoni paytida shundaylarga alohida e'tibor berishi zarur. Bu ansamblning saviyasiga ta'sir etadi.

¹ I.Akbarov. Musiqa lug'ati. T., 1986, 7-b.

An'anaviy ijrochilik ansablida sozlar uyg'unligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, g'ijjak, doyra, chang, rubob, tanbur, qo'shnay, dutor, nay, ud sozlari ansambl uyg'unligidagi ijroda bir maqsadni ifodalovchi hamda bu jarayonga alohida ulush qo'shish bilan xarakterlanadi. Ijrochi o'zga sozlar haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Demak, turli xildagi cholg'ularga nisbatan talabalarining ijrochi sifatida tajribasi ma'lum darajada oshib boradi.

An'anaviy ijrochilikda yakkanavozlik, jo'rnavozlik va uni qay darajada o'zlashtirib borishlik alohida ahamiyatga ega. Bu esa musiqaning umumbashariyatga xos bo'lgan ichki xususiyatlariga bog'liqdir. Zero, musiqa usul va ohangning uyg'unligida pirovardiga yetadi. Shu bois, har bir cholg'uvchi, ya'ni ohang taratuvchi, musiqaning asosi bo'lmish zarblar ilmidan voqif bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'zbek musiqasida esa bu doyra usullari ohang bilan bevosita bog'liqligini qayd etib o'tishimiz joizdir. Shuning uchun ham doyra jo'rnavozlikda alohida etakchi vazifani bajaradi. Sozandalarni jam bo'lib bir ohangni ijro etishi insonga huzur-halovat beradi. Shu bois bo'lsa kerak sozlarni alohida, jo'rnavozlikda kuy ijro etishlari azaldan an'anaga aylangan.

Musiqa ilmiga binoan ansamblidagi har bir sozanda doyra sabog'idan albatta xabardor bo'lishi shart, shundagina ijro etilayotgan asar ravon, mukammal hamda uyg'unlik jozibasiga ega bo'ladi.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan Sharqning taniqli allomasi Yoqub Ibn Isxoq an-Kindiyning musiqa inson ruhiga ta'siri ustida ko'p shug'ullanganligi va bu sohada anchagina muvaffaqiyatlarga erishganligini aytib o'tsak foydadan xoli bo'lmaydi. Uning yozishicha: – «Kuylar bilan gullar o'rtasida qandaydir o'xshashlik bor. Gullardan taraladigan xushbo'y hidlar ovozsiz musiqaga o'xshaydi. Hidlar musiqa sadolariga o'xshab, kishi ruhini ko'taradi, kuchiga kuch qo'shadi»².

Ayni o'rinda bir go'zal kuyni ansambl jo'rligida eshitish insonga huzur-halovat baxsh etadi. Talabalarining ansambl sinfi bo'yicha o'quv qo'llanmani tavsiya etar ekanmiz, uni ta'lim jarayoni, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq amallar asosida tuzishga harakat qildik. Risola ikki katta qismga bo'linadi. Birinchisi, talabalarni kerakli axborot olishlari uchun tarixiy va nazariy ma'lumotlar bayoniga bag'ishlanadi. Ansambl ijrosidagi sozlar taqsimoti esa, "Saraxbori Buzruk" asarini misol sifatida tavsiya etdik. Ikkinchi qism esa, o'quv dasturida belgilanganidek o'qish davomida talabalar «Shashmaqom»ni to'la to'kis o'rganishlari bosqichma-bosqich o'zlashtirishlariga asoslangan. Albatta, bu jarayon talabalarining mustaqil o'zlashtirishlarida vohaviy janrlarni, o'tmish va zamonaviy bastakorlar tomonidan davr ruhida yaratgan asarlarni o'zlashtirishlari uchun ahamiyat berish o'qtirilgan. Oldimizga qo'yilgan talablarning mushkilligiga shubha yo'q. Lekin, kasbiy musiqaning o'tmish an'anasiz o'zlashtirmay turib, buyuk kelajak yaratish mumkin emas. Qolaversa, inson tafakkuri va imkoniyati bunday vazifalarni bajarishga qodirdir.

² Z.Egamberdiyeva, Z.Egamberdiyev. Al-Kindiy musiqa. // Sovet O'zbekistoni san'ati. 10/1978.

§ 1. Ansanbl ijrochiligi tarixidan

Har bir buyuk xalq, o'zining o'tmishdan shakllangan boy madaniyati bilan shuhrat qozonib kelgan. Bu madaniyat, qadimdan millatlarning moddiy va ma'naviy ravnaqi yo'lida astoydil xizmat qilishi uchun ulkan bir vositadir. Boshqa xalqlar madaniyati kabi o'zbek xalqining ham o'ziga xos mumtoz san'ati mavjud. Ushbu san'at avlodlardan avlodlarga, ustoz-shogird an'anasi uslubida yashab kelgan. Buni biz tarixiy obidalarda, musiqa va miniatyura san'atida, me'morchilik, xalq og'zaki va yozma ijodiyotida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shubha yo'qki, qaysi san'at xalq hayoti va orzu umidlarini tabiiy aks ettirsa, hamda ana shu jarayonda o'z milliy-madaniy, adabiy, badiiy me'rosiga mustahkam tayansa, o'sha san'at hayotbaxsh va umrboqiydir. Tarixiy manba'larda zikr etilishicha, Markaziy Osiyoda azaldan madaniyat va san'at juda yuksak darajada rivojlanganligi ko'p marotaba qayt etilib o'tilgan. Yurtimizning turli vohalaridagi arxeologik qazilmalarida topilgan tasviriy san'at yodgorliklarida buni yaqqol ifodasini ko'rishimiz mumkin. Hattoki, ularda ilk jo'rnavozlik namunalari aks etganligini guvohi bo'lamiz. Bu o'z o'rnida jo'rnavozlikning o'sha davrdanoq mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Musiqada ansanbl masalalariga oid ma'lumotlar Farobiy, Marog'iy, Kavkaviy, Darvesh Ali Changiy, so'nggi yillarda Fitrat kabi allomalar, musiqashunos olimlar risolalarida turlicha bayon etilgan. Tarixiy manbalarda musiqa san'atining aniq bir yo'nalishlari xususida muayyan ma'lumotlarga tayanib bayon etilgan. Jo'rnavozlik va ansanbl xususida fikrlar alohida zikr etilmagan bo'lsada, hayot taraqqiyoti va ijrochilik an'analari, dasta bo'lib ijro etish amaliyotning oddiy amallari ekanligini namoyon etadi. Jumladan, XVII asrda yaratilgan Darvesh Ali Changiyning risolasida bayon etiladiki: - «Ilk musiqa saboqlarini Darvesh Ali otasi Mirzo Ali Changiydan o'rgangan. Keyinchalik o'zidan avvalroq ijod etgan mashhur musiqa arboblari Xujand Ja'far Qonuniy, Ali Do'st Nayi, Hasan Kavkaviy, Hofiz Mahmud, Hofiz Miraq Ibn Majruhiylardan musiqachilikka xos va umumiy axloqiy, insoniylik fazilatlarini saboqlarini o'rganadi. Changiyning musiqa risolasida qayd etilgan o'sha davr musiqa hayotida juda ko'p hunarmand kishilar ham musiqa ijrochilik amaliyotida qizg'in ishtrok etishgan. Jumladan; tikuvchi Boqiy Dirziy, Poyanda Tabib, Abdulkarim Qoziy, Munajjim Boqiy Shohidiy, Hofiz Qosim Bazzoz, Pirmuhammad Kulollar musiqa cholg'ularida zo'r mahorat bilan kuy ijro etishgan.»³ Bu esa sozandalarning jam bo'lishi ansamblga bir ishora bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

XVI-XVII asrlarga kelib Buxoro, Samarqand, Xiva va Qo'qon vohalarida madaniyat ravnaqi tobora yuksala boshlaydi. Musiqiy dunyoqarashlari bir tomondan kishilarni o'zaro uzviy bog'lanishi musiqa ravnaqini rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. Saroy ayonlari uchun maxsus sozandalar biriktirilgan. Ularga alohida rahbar tayinlangan. Saroy ayonlari uchun hozir bo'lgan sozandalar o'z rahbarlariga itoatda bo'lib, musiqiy qonun qoidalarga qat'iy rioya etishgan.

³ Dilbar Rashidova. Darvesh Ali Changiy. //“Sovet O'zbekistoni san'ati”. 10/1978.

Odatda, joʻrnavezlikning asosiy negizini musiqiy sozlar majmui tashkil etadi. Har bir cholgʻu esa joʻrnavezlikda alohida oʻringa va tovush koʻlamidan kelib chiqqan holda muhim maqomiga egadir. Alisher Navoiy “Mahbub ul qulub” asarida har bir sozga alohida taʼrif berib ularni nechogʻliq musiqa olami uchun muhim ekanligini taʼriflab oʻtadi;

Agar kishi may havosidin chiqarur,
Gʻijjak Maddi nolasi bila anga yolborur.
Va tanbur pardadagi fitnadin halok etar,
Va ofiyat pardasin chok etar.
Va chang zorligʻ bila boʻgʻzin tortar,
Va ud lisoni nogʻmasining targʻibi changdin ham ortar.
Andakim rubob boshin erga qoʻyub niyoz koʻrguzgay,
Va qubuz quloq tutib ayshga targʻib ohangini tuzgay.
Mayxonada kimki maydin ibo qilgay,
Nay uni bir dilkash navo bila ani rasvo qilgay.
Chun qonun va chagʻona nolasi quloqqa tushgʻay,
Va mahvashi soqiy yukunub, may oyoqqa tushgay,
Ul vaqt zuhdu taqvoga ne eʼtibor.⁴

Hazrat Navoiy har bir cholgʻu sozining nechogʻli zabardast ohangga egaligini tasvirlab berib ularning ovoz tarovati nimaga qodir ekanligini bayon etadi. Ana shu musiqiy sadolar oʻzaro birlashib, birgalikda tarannum etsa har qanday qalblarni oʻziga rom etishi muqarrardir. Shu bois, joʻrnavezlik yoki bir-biriga mos keladigan cholgʻularni dasta boʻlib ijro etilishi majlis ahlining koʻp jihatli ekanliklariga mos kelishini eʼtirof etish lozim.

Qayd etish joizki, XX asrning allomalaridan biri Abdurauf Fitrat ham bu xususda oʻz fikrini bayon etib “Oʻzbek musiqasi toʻgʻrisida” gi maqolada oʻzbek musiqasini juda boy tarixi borligi haqida fikr yuritadi. *“U bir musiqaki, yolgʻiz oʻzining klassik qismida uch yuzdan ortiq kuy saqlagan: Bir musiqaki, bu kun oʻn beshga yaqin cholgʻuning egasidir, bir musiqaki oʻzining tekshirishga loyiq nazariyasi, usuli bor: uni maqtovga sazovor deganlar toʻgʻri soʻzlaydilar”* degan fikrni aytib, «Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi» kitobida ansambl ijrosiga ham toʻxtalib oʻtib, yozadi – *«Bizning bu kungi musiqa ustozlarimiz cholgʻularning bir-biriga munosabati toʻgʻrisida ham katta yanglishiliqlar koʻrsatdilar. Bir tanbur bilan, bir dutor topilgʻoch, darhol bir gʻijjak bilan bir chang qoʻshadilar. Xolbuki, bir gʻijjak tovushi ikki tanburning tovushini yeb qoʻyadi. Birgina tanburni bir gʻijjak bilan bir changga topshirish u bechorani boʻgʻib oʻldirishdan boshqa narsa emasdir. Bizning burungʻi ustodlar masalani butunlay boshqacha qoʻyganlar:*

1. uch tanbur, bir rubob, bir dutor, bir gʻijjak, bir balabon, bir qoʻshnay, bir chang, bir doyra;

2. ikki tanbur, bir qubuz, bir dutor, bir nay, bir doyra;

3. ikki tanbur, bir qubuz, bir doyra (dutor ham qoʻshilsa boʻladi);

⁴ Alisher Navoiy. «Mahbub ul-qulub. T., 1983.

4. Hech bo'lmaganda bir tanbur, bir dutor, bir doira.

*Burung'i ustodlar shu, yo shunga yaqin bir tartib bilan musiqa chalg'onlar. Musiqamizning katta kamchiliklaridan bittasi uning tarqoqligidir. Musiqamizda birlik yo'q. Bir kuy Xivada boshqa, Toshkentda boshqacha chalinadir. Hozirgi texnikumlarimiz ham shu chizig'dan chiqolmay yuradilar.»*⁵ Buni yo'qotish uchun notalarga muvofiq suratda davom ettirishlarini talab qilish lozimligini ta'kidlab o'tadi.

Har bir davr va ijtimoiy hayot o'z rivoji asosida ansambllarning tarkib topishini jonli jarayon bilan bog'liqligini namoyon etib kelgan. Masalan: damli va urma cholg'ular ansambli doimo har bir davrda ham, o'z uyg'unligi bilan amaliyotda mashhur bo'lib kelgan. Sozandalar ansambliga muhit va davr doimo o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Eng avvalo unga bo'lgan munosabat muhim ahamiyat kasb etgan. Bunga XIX asr Xorazmda yuzaga kelgan musiqiy muhitni misol qilish mumkin.

O'z davrining donishmandi - Feruzshoh (Xorazm) davrida musiqa ilmiga e'tibor yuqori saviyada bo'lgan. Xiva xonligi muzofotida 32 ta sozandalar (guruhi) faoliyat ko'rsatib, ularning har biri o'z dasturi va mahoratini namoyish etib shaxsan xon ruxsatidan so'ng o'z faoliyatini davom ettirgan. Maqom san'atini izchil yo'lga qo'yish uchun Feruzshohning nazorati ostida saroy sozandalari guruhi (ansambli) tuziladi. Bu ishga o'ta layoqatli hofiz va cholg'uchilar jalb etiladi. Keyinchalik malakali sozandalar safini doim to'ldirib borish maqsadida eng yetuk ustozlarga shogird tayyorlash vazifasi yuklatiladi. Shogirdlarga parda va usul tizimlarini kuy va ashulalarga mos masalalar o'rgata borilgan.

XX asrning boshlariga kelib, O'zbekistonda xalqimizning turmush tarzi o'zgarishi munosabati bilan musiqa san'atiga bo'lgan qarashlar ham tobora ijobiy tomonga o'zgarib bordi. Ijtimoiy hayot bilan birgalikda Respublikaning turli vohalarida jamoaviy mehnat tartibi tuzila boshladi. Zamonga moslashib vohalarda ham cholg'u sozlar ansamblini joriy qilish imkoniyat darajasida amalga oshirilib bordi. Davrning eng dolzarb asosiy g'oyalari ham jamoalarda yetakchi sozandalar ansamblini faoliyat ko'rsatishi edi. Bundayin dastalarning tarkib topishi o'zbek musiqa me'rosida yangicha bir bosqich sifatida kirib keldi. Har bir sozandalar dastasi turli musiqiy cholg'ularni o'z tarkibiga olib, ommaviy ijro uchun mo'ljallangan. Shu tartibda ijro dastalar uslublari xalq orasida ommalashib boradi. 30-50 yillarda musiqa sohasi keskin rivojlandi va vohalarni o'zining zabardast, o'ta didli musiqa ilmini o'ziga xos namoyandalari o'z faoliyatlarini boshlaydi. Bu fikrimizga – O'z SSR xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, musiqa ustasi, mohir xalq sozandasi, tashkilotchi va murabbiy usta Ro'zimatxon Isaboev (Namangan 1885 – 1964y) tanburchini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Ular tuzgan ansambl tarkibida: - Inomjon, Bahridin, Sharif xoji – g'ijjakchi, Mallavoy – changchi, Ergashvoy – tanburchi, Toshmirza – surnaychilar kabi sozandalar faoliyat olib borishgan.

O'z o'rnida vohaviy maktablarning musiqiy ta'limini izchil bir yo'lga qo'yish borasida ijodiy ishlar barpo etila bordi. 1919 yilda To'xtasin Jalilov boshchiligida xalq cholg'ulari ansambli tashkil qilinib, 1923 yilda Moskva

⁵ A.Fitrat. O'zbek musiqasi to'g'risida. «Alanga» jurnali, 1928. 2-son.

shahrida o'tkazilgan butun Rossiya qishloq xo'jalik savdo ko'rgazmasida ishtirok etib muvaffaqiyat bilan qaytishgan. Shundan so'ng, 24 nafardan iborat havaskorlik to'garak ijro dastasi o'z faoliyatini boshlaydi.

1927 yili O'zbekiston radiosi qoshida maqomchilar ansambli tashkil etiladi. Darhaqiqat, bu ansambl mumtoz musiqa sohasini mohir sozandalarining majmuasi edi. Ansambl ijrochilari: naychilar – Dadaali Soatqulov, Saydali Kalonov, qo'shnaychi- Hayrulla Ubaydullaev, changchilar-Nig'matjon Do'stmuhamedov, Faxriddin Sodiqov, dutorchilar – Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar – Rixsi Rajabiy, Mahsudxo'ja Yusupov, g'ijjakchilar – Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, doyrachi - Dadaxo'ja Sottiho'jaevlardan iborat edi. Ularning asosiy maqsadi mumtoz musiqa me'rosi namunalarini ijro etish, hamda musiqa san'ati ravnaqi yo'lida izchil maqsad sari borish edi. Bizning nazarimizda ana shu davrdan boshlab, xalq ijrochilik san'atida xususan, guruh bo'lib ijro etish, ya'ni ansambl ijrochiligida turlanish davri boshlanadi.

30 yilning o'rtalariga kelib, xalqlar do'stligini yanada mustahkamlash maqsadida adabiyot va san'at kunlarini tashkil qilish odat tusiga kirib bordi. Shu bois yirik ashula va raqs ansamblari tashkil etila boshlandi. O'z vaqtida 20-30 kishidan iborat katta ansamblar sahnalarni to'ldirib o'sha davr mafkurasiga xos bo'lgan dabdaba va ulug'vorlik kayfiyatini yaratish uchun lozim edi. Sozlar mumkin qadar ko'paytirilib, katta bir tovush guldastasini hosil etardi. Shu tarzda, davr taqozosi bilan amaliyotda turli xil ashula va raqs hamda dutorchilar ansamblari, turli vokal va orkestrlar jamoasi tuzilib, ijrochilik amaliyotida o'z faoliyatlarini olib borar edilar.

50 yillar oxirida o'zbek mumtoz musiqasiga alohida e'tibor berilib, O'zbekiston radiosi qoshida maqomchilar ansambli tuziladi. Bu ansamblga o'z zamonasining eng yetuk maqomdon sozanda va xonandalari taklif etilgan. Buni biz ansambl ijrochiligi amaliyotida eng nufuzli hamda mukammal jamoa deb hisoblaymiz. Ushbu badiiy jamoa faqatgina 10 yillik faoliyati davomida shashmaqomning barcha Nasr bo'limi musiqiy namunalarini va bir qator Mushkilot qismlaridan asarlarni o'zlashtirib magnit tasmalarga yozdirishga muyassar bo'lishgan.

Hech mubolag'asiz aytishimiz mumkinki, radioning oltin xazinasidan joy olgan musiqiy me'rosimizning ushbu namunalari kelajakning har bir yosh avlodiga an'anaviy ijro masalasida dasturi amal bo'lib, xizmat qilib keladi va shu yo'sinda davom etadi.

Haqiqatan ansambl ijrochiligining nafosatli xususiyatlarini va uning turli tarkiblariga tuzilishi imkoniyatlarini, O'zbekiston davlat konservatoriyasida 1972 yildan boshlab, o'z faoliyatlarini boshlagan ilm dargohi, yani an'anaviy ijrochilik kafedrasida uzoq yillar davomida shu kungacha o'z faoliyatini ko'rsatib kelmoqda. Darhaqiqat, jonli ijroda musiqa cholg'ular ovozlari mutanosib holda tarranum etishlari uchun shunga mos cholg'ular to'plash lozim. Shunday bo'lsinkim, nay va g'ijjak sozi bilan birgalikda dutor va tanbur ovozlari ham ansambl ijrosida eshitilib tursin. Aytish joizki, ansambl ichrochiligini asosiy mohiyati ham shundadir.

Biz yuqorida murojat etgan Fitrat domlaning fikrlari ham, hazrat Alisher Navoiyning keltirgan she'riy misollarini zaminida ham ana shu ansambl ijrosidagi

turfa ovozlarni jozibasi hamda mutanosibliigi turadi. Biz doimo ijroda ana shu inson ruhiyatiga bir me'yorda ta'sir etuvchi ovozga erishadigan ansamblarni tuzishimiz maqsadga muvofiqdir. Tuzilgan ansambl tarkibida sozlarning sonidan qat'iy nazar, asosiy e'tibor ularning tarranum (bir me'yor) sifatiga qaratilishi lozim.

Ayni paytda an'anaviy ansamblar vohaviy, uslubiy xususiyatlar doirasida shakllanib borayotganligini guvohimiz. Bunga Buxoro, Xorazm, Toshkent – Farg'ona, Samarqand, Andijon viloyatlarida faoliyat olib borayotgan maqom ansamblarini misol qilish mumkin. Aytish joizki, ansambl ijrochiligi juda sermashaqat va mushkil jarayonni o'z ichiga oladi. Uni yoshlar amaliyotiga singdirish sharaflı ishlardan biri hisoblanadi.

Zero, kelajagi buyuk davlatning kelgusida hozirgi yosh avlodni benazir ustozlar sifatida shakllana borishida ushbu tarbiya ham asos bo'lib xizmat qilishi begumondir.

§ 2. Ansanbl va rahbar (ustoz-shogird)

Cholg'uchilar ansambli fanidan saboq beruvchi rahbarning eng dolzarb, birlamchi vazifasi – ta'lim va tarbiyani jamoaviy ijrochilik xususiyatlariga xos holda moslashtirib borishdir. O'z o'rnida rahbar har tomonlama bilimli, ijrochilik masalasida ilmi va muayyan tajribaga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Odatda, o'quv jarayonida ansambl tarkibi vaziyat taqozosi bilan tuziladi. Ustiga-ustak, ansambl ishtrokchilarining bilim mavqe'si ham turlicha bo'lishi muqarrar. Shu bois, ansambl rahbari o'z ish faoliyatini muayyan tarkib asosida tuzishi va olib borishi taqozo etiladi. O'z imkon darajasidan kelib chiqqan holda o'zlashtirishning turli uslublariga tayaniladi.

O'quv jarayoniga mos hamda talabalarining ijro saviyasini inobatga olgan holda quyidagicha uslub asosida ish yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unga ko'ra avvalo ansambl qatnashchilarining ma'lum guruhlariga bo'lish va ularni jo'rnavozlik ijro amallariga o'rgatish lozim. Guruhlar bilan ishlash jarayonida asarni mukammal o'zlashtirgandan so'ng, jamoa bo'lib ansambl sifatida birlashish yaxshi natijalarni olib keladi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim tomoni shundaki, talabalar imkoniyatiga mos, hamda ruhiyatiga xos ijro dasturini tanlashdir. So'ngra, tanlagan asarni sozandalarga o'rgata borishda talabalarining darsga qatnashishi jarayonini muntazam ravishda kuzatib borish umumiy tarbiyaning muhim omillaridan biri sifatida gavdalandi.

Ansambl har xil sozlardan tashkil topganligini inobatga olib, bir sozni o'rnini ikkinchi bir soz bilan almashtira olmaslik holatiga tushib qolishlikni bartaraf etish zarur. Mashg'ulotlarda jamoaga, har bir sozandaga hurmat ehtirom, o'zaro mehr muhabbat, insoniylik fazilatlarini bosqichma-bosqich talabalar qalbiga singdira borish talab etiladi.

Oliygozlarga qabul qilingan talabalar dastlabki musiqiy saboqlarni musiqa maktablarida, o'rta maxsus o'quv yurtlarida, kollejlarda oladilar. Shunday ekan,

keyingi bosqichlarda musiqa ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga asoslanishi maqsadga muvofiqdir.

Bu xususda o'qituvchi har bir talabani bilim saviyasini va ijro mahoratini o'zlashtirishini nazorat etishi lozim. So'ngra, uning ijodiy rivojlanish qobiliyatini hisobga olib saboq rejasini tuzadi. Oliygo'ha ta'lim tizimida an'anaviy musiqani o'zlashtirish jarayonida bir qator an'anaviy va texnikaviy jihatlarga asoslanishi taqozo etiladi. Buni biz avvalo ustoz va shogird an'analari ko'ramiz. Shu bilan birga: har bir talaba quyidagi o'zlashtirish omillariga alohida e'tibor berishlari talab etiladi.

a) tanlangan dasturni ustozlar ijrolaridan magnit tasmlari orqali eshitib borish;

b) musiqiy asarni albatta yod olish;

v) nota yozuvlarini ravon, aniq va erkin ijro etish;

g) asar magnit tasmlarida mavjud bo'lsa, nota yozuvi bilan taqqoslash;

d) asar ijrosiga ijodiy yondoshish.

Qayd etish lozimki, o'z o'rnida dastlabki asar ijrosi o'qituvchi tomonidan ijro etilishi, ta'lim talablaridan biri ekanligini e'tirof etish lozimdir. O'qituvchining dastlabki ijrosi nazariy tushuntirish bilan davom etishi, asarning tarkibiy qismi haqidagi ma'lumotlarni talabalarga tushuntirish bilan davom etadi. Bu jarayonda o'qituvchi quyidagi unsurlarga e'tibor berishni o'qitirishi lozim. Jumladan: - Shashmaqomning Nasr musiqiy bo'limidagi sho'balarda o'z o'rnini topgan, namudlarni aniqlash, ijroda uni seza bilmoq, avjlarni bilmoq, taronalarda uchraydigan murakkab o'lchovli usullar ustida mashg'ulotlarni ko'paytirishni yo'lga qo'yish lozim. Yosh ijrochilarda asarni tez xotiralariga singdirish uchun xirgoyi tizimi bilan ishlashni alohida e'tirof etish kerak. Og'ir o'lchovli (saraxbor taronalari, turkumli asarlar taronalari) murakkab bo'lgan asarlar ham xirgoyi uslubi yordamida o'zlashtiriladi.

Ansambl tarkibidagi ishtirokchilar bir-birlarini o'ta ziyraklik bilan eshitishi va asarni to'laqonli anglashi talabning eng oliy vazifasi deb hisoblash shart. Musiqa so'zi go'zallik degan ma'noga ham yaqin bo'lgani sababli uni go'zallikdan tashqarida tasavvur etish qiyin. Jo'rnavozlik me'zoni aynan shu musiqiy go'zallik tarzida o'lchanishi shart. Talaba mohir ustozlar haqida kerakli ma'lumotga ega bo'lishi yoki bilmaganlarini ustozlari tomonidan hikoya etib berilishi, muayyan tasavvurga ega bo'lishlari uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, bir asar turli ustozlar tomonidan ijro etilgan. Imkoniyatdan kelib chiqib ijrochilarni bir-biri bilan taqqoslash holatlarini tashkil etish talaba ongining rivojiga asos bo'ladi. Talabaning nazariy bilimini ya'ni, nota savodini muntazam ravishda kuzatib borish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

Ansambl ijrochiligidan muhim xususiyatlaridan biri ijroda bir xillikni ta'minlashdir. Har bir sozandaning o'z ijro yo'li bo'lishi bu muqarrar jarayon. Shu bois, dasta ijrochiligidan ularning ma'lum darajada bo'lsada tafovuti sezilishi aniq. Bu tafovutlar nimada aksini topadi? O'zbek musiqa ijrochiligi o'zining bezaklarga boy, sersayqal, qochirim va nolali ohanglardan iborat bo'lganligi barchamizga ma'lum.

Ma'lumki, musiqiy sayqal - bezaklarni talqini har bir ijrochining qalbi bilan bog'liq. Ana shu me'zon jo'rnavozlikda va ansambl bo'lib ko'pchilikning birgalikdagi ijrolarida o'zini namoyon etishida, ayrim muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu toza ijro bilan bog'liqdir. Sozandalar doimo bir-birini tinglab, jam bo'lib mashq qilib, faoliyat olib boradilar va ijrodagi mutanosiblikni saqlaydilar. Uning aksi esa albatta, ijroviy tafovvutlarga olib keladi. Ansambl rahbari ijro jarayonida va asarlarni o'zlashtirish paytida aynan ijroviy bezaklarga alohida e'tibor berishi ijobiy natijalarga olib keladi. Ansambl qatnashchilariga ijro paytidagi bezaklar talqiniga, alohida e'tibor berishni va bir me'yordagi ijroni aniq ko'rsatib berish shartdir. Ijroni ravon va aniq yo'nalishda olib borish to'g'ri yo'l hisoblanadi. O'zlashtirilgan asarni albatta ustozlar hukmiga havola etish bilan birgalikda ijrochilik amaliyotida ham muntazam tarzda ijro etib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, talaba yoki yosh sozanda o'z mehnati samarasini tinglovchi bilan baham ko'rib, uning ijobiy munosabatidan ilhomlanib va ruhan mag'rurlanadi. Keyingi o'zlashtiriladigan musiqiy namunalar uchun ozuqa oladi.

§ 3. Ansambl sinfidan bakalavr talabalari uchun ijro dasturini tanlash

Ma'lumki, an'anaviy ijrochilikda har bir talaba o'zining imkoniyati darajasida va maxsus mutaxassislik sinfida ijro mahoratini o'zlashtiradi. Bu jarayon yakka tartibda va ustozlarning nazoratida amalga oshiriladi. Natijada talaba ijrochilik bo'yicha muayyan malakaga ega bo'ladi va bu uning individual munosabatlari bilan xarakterlanadi. Shu bois, ansambl ijrochiligida shu jarayon jamoaviy xarakter kasb etishi lozim bo'ladi. Shuning uchun ansambl ijrochilarining talqini bir umumiy cholg'u tarovatiga xos bo'lishi talab etiladi. Talabalar o'z malakalarini yonlarida o'tirgan hamnavozlari bilan mutanosib talqin etishlari kerak. Buning uchun asarni tushunishda va talqin etishda bir xil tushunchaga ega bo'lish talab etiladi.

Ansambl ijrochiligida ham asarni mukammal ijro etish uchun musiqaning barcha jozibali bezaklarini ifoda etish lozim bo'ladi. Xususan, ansambl ijrochilik an'analari, mutaxassislik sinfi kabi talabalarning cholg'u sozida qo'llaniladigan bezaklar, shtrixlar va boshqa musiqiy belgilarni qo'llashni taqozo etadi. Lekin, jamoaviy ijroda, sharoitdan kelib chiqqan holda qo'llaniladigan nola - qochirimlarning ijro jarayonida ishlatishni o'z qoidalari mavjud. Avvalo, ijro madaniyati, ya'ni ansambl talqiniga mos keladigan bir xil ijro lozim bo'lsa, ikkinchidan ijroni ustozlar tomonidan nazorat qilib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ansambl ijrosini uzviy-ravon yo'nalishda olib borish nihoyatda zarur. Shunday ekan, asar tanlashda ansambl jamoasining o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish va har bir ijrochini musiqiy qobiliyati, shaxsiy imkoniyati musiqiy bilim doirasini e'tiborga olmoq maqsadga muvofiqdir. Tanlangan murakkab asarni dastur qilib olib, so'ngra uni sozandalarga singdira ololmaslik holatiga yo'l qo'ymaslik, o'qituvchidan qat'iy ravishda talab etiladi. O'zlashtirilgan dasturni har bir bosqichini oraliq nazoratlarida sahnaviy chiqishlar bilan amalga oshirish

tizimini yo'lga qo'yish, konsert darajasida o'tkazilishini joriy qilish, talabalar amaliyotida jiddiy ijroga bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu o'quv qo'llanmaning asosiy vazifasi an'anaviy ijrochilikda ansambl sinfi uchun ijro dasturini saralash va iloji boricha talabalar imkoniyati hamda konservatoriyaga mos holda shakllashtirishdan iboratdir. Albatta, bunda ta'lim qoidalariga mos holda o'tmishdan an'ana tarzida avloddan - avlodlarga o'tib kelayotgan ustoz-shogird saboqlariga tayanish muqarrardir.

Ko'p yillardan beri respublikamizning barcha viloyat musiqa o'quv muassasalarida an'anaviy ijrochilik bo'limlari o'z faoliyatini olib bormoqdalar. O'quv tizimi ta'lim standartlarida belgilangan qoidalariga ko'ra, ma'lum bir yo'lga qo'yilgan. Ansambl sinflari ham bundan mustasno emas. Oliy o'quv yurtlarida bakalavr tizimi 4 yillik o'quv dasturini o'z ichiga olsa, mazkur o'quv tizimi 8 semestrni tashkil etadi.

Demak, 1-semestr jarayoni 4 oyni o'z ichiga olar ekan, avvalo «Shashmaqom» Mushkilot va Nasr bo'limini shu davrga moslab, o'zlashtirish uchun asarlarni taqsimlash lozim bo'ladi.

Ma'lumki, maqomlarning Mushkilot bo'limi tasnif, tarje, gardun, muxammas, saqillar kabi tarkibiy cholg'u qismlarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy ta'lim tizimida ularni bevosita o'zlashtirish nota yozuvi (magnit tasmlari yozuvlari, ustozlar ijrolaridagi na'munalari) orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bois ansambl sinfi bo'yicha 4 yillik o'quv mezonida «Shashmaqom»ning Mushkilot va Nasr bo'limini to'la qamrab olish uchun to'g'ri taqsimlash lozim bo'ladi. Bunda talabalar dasturlarini o'zlashtirishlari uchun o'quv jarayoniga mos imkoniyatlar yaratish lozim.

Odatda, xalqimiz musiqiy merosini durdona hisoblab kelgan. «Shashmaqom» tarkibida Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq kabi alohida maqomlar o'rin olgan bo'lsa, xalqimiz ularni go'zal bog'larga, hashamatli qasrlarga qiyoslab kelganlar. Shu bilan birga bu go'zalliklarga eltuvchi hamda siru-sinoatlarini anglash uchun bir muayan «yo'l» borligini e'tirof etib o'tganlar. Albatta, bu qiyoslash barchasi tasavvur uchun vositadir. Lekin, darhaqiqat yosh maqomchi sozanda, xonanda, ijrochilar uchun bu «yo'l» o'ta muhim vazifa hisoblanadi. «Yo'l»lar deganda maqomlarning mushkilot bo'limi, ya'ni Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saqillar va boshqa cholu asarlar nazarda tutilmoqda.

Qayd etish lozimki, avvalo maqomlarning cholg'u yo'llaridagi turkumlarni teran o'rganib, so'ngra Nasr bo'limi tarkibidagi ashullalarning jozibadorligiga erishish mumkin. Saboq jarayonining eng muhim tomonlaridan biri, ansambl jamoasidagi har bir sozanda Mushkilot bo'limidagi (vohaviy maktablar) asarlarni aqlan idrok etishlaridadir. Chunki, cholg'u asarlarisiz maqomlarni eng maroqli hissiyotlarini bilib bo'lmaydi. Albatta, har bir maqomni o'z moduli mavjud. Shu modulini yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun keng doirali musiqiy ilm lozim bo'ladi.

Sozanda musiqiy ilmni shakllantirish uchun esa, maqomlarni nazariy jihatlarini o'zlashtirishi joizdir. Jo'rnavozlik, hamfirklik, ya'ni bir ohangni ikki

ijrochi bir xil anglashi, biri chalganda ikkinchisi unga mutanosib jo'r bo'lishi, ansambl bo'lib ijro etishlikning asosiy negizidir.

«Maqom» - bu juda ko'p ma'noga ega bo'lgan tushuncha. Har bir maqomning o'z lad va kuy ohang asoslari mavjud. Ko'p ohanglarda har bir maqomning xarakteri, sifati va xususiyati muhrlangan. Shu bois, ularni talqinida savodli ijro muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'zlashtirish jarayonida ijrochilar shu ohanglarga xos mashqlar, tovushlarni tozaligini saqlagan holda mashg'ulotlar olib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Mashqlar jarayoni ham avvalgi ikki maqsadni ko'zlashi lozim. Birinchisi maqomni o'rganish bo'lsa, ikkinchisi albatta birgalikda ansambl bo'lib ijro etish ko'nikmalarini mustahkamlashdir.

Maqomlarning cholg'u bo'limlaridagi kuy yo'llarini har biri mustaqil asarlar hisoblanib, qaysi maqomga tegishli bo'lsa, nomlanishida ham shunday aks etiladi. Masalan, Tasnifi Rost, Garduni Segoh, Saqili Navo, Muxammasi Rost va h.k. Albatta har bir maqomning kuy va ashula yo'llari faqatgina o'sha maqomlar lad asosi, badiiy - estetik ta'siri bilangina cheklanib qolmay, balki turli qismlarda ular o'z xususiyati bilan o'zgarib, tobora boyib boradi.

O'tmish musiqashunos allomalarining yozishlaricha maqomlar ko'p jihatlilikka ega. Ularda turli xarakterga ega bo'lgan ohanglar o'z aksini topgan. Jumladan: maqomlarning faqat cholg'u yo'llaridagi asarlarning o'zi kishida xushchaqchaqlik, gohida g'amginlik yoki jasoratbaxsh kayfiyatlar sari chorlaydi. Maqomlarda, etti yoshdan etmish yoshgacha bo'lgan, insonlarning ta'biga xos bo'lgan kuy-ohanglar mujassamlangan. Faqat ularni ongli ravishda va o'rnida ijro etish kerak. Shu bois, har bir maqomning tarkibidan joy olgan asarlarni kuy ohangi, lad qiyofasi, doyra usuli turlichadir. Avvalo shunga xos bo'lgan mashqlar uslubini olib borish maqsadga muvoffiq tamoyillardandir. Chunki, maqomlarning nomlanishlari va doyra usullari bir xil bo'lgani bilan kuy yo'llari, lad asosi va kuy mavzulari har xildir. Tartibli mashg'ulotlar va tarkibli mashqlar sozandada maqomlarni idroklash ko'nikmasini to'g'ri shakllantirishini ta'minlaydi. Musiqiy shakl jihatidan maqomlarning cholg'u yo'llari o'ziga xos ko'rinishga egadir. Ular peshrav tamoyiliga asoslangan bo'lib, ashula yo'lidan keskin farq qiladi. Cholg'u yo'llarining barchasi uchun ham yagona xoslik, ularning «xona» va «bozgo'y»lardan iborat ekanligidir. (Xona – uy, ya'ni kuyning tashkil etgan tovushlar va uning boshqa unsurlari joylashtirilgan xona ma'nosini bildiradi.

Xona arab tilida *bayt* deganidir. «Baytul-she'r» deyilganda esa she'rning uy - xonasi tushuniladi. *Bozgo'y* kuyning qaytarma bo'lagi hisoblanadi va yana - ayt ma'nosini anglatadi.

FAN DASTURINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Ushbu o'quv qo'llanmada milliy mumtoz asarlar, ya'ni bastakorlar yaratgan musiqiy asarlar o'rin olgan. Mumtoz deyilishiga sabab: mazkur asarlar xalqimizning qalbidan chuqur joy olib, milliy madaniyatimizni bu asarlarsiz tassavur qila olmaymiz. Bundan tashqari qo'llanmadagi musiqiy namunalar qadim ajdodlarimizdan to hozirgi kunga qadar etib kelgan maqom merosi asosida

ishlangan bo‘lib, aynan O‘zbekona bezak va mellizmlar, milliy ruhiyat mujassam bo‘lgan asarlar sirasiga kiradi.

Bu musiqiy asarlarni ijro etishda o‘ta ehtiyotkorlik bilan yondashmoq lozim. Asarlar ijrosi uchun milliy sozandalik maktabini o‘tagan, ijrochilik mahorati milliy asarlar ijro etish uchun moyil bo‘lgan sozandalar bo‘lishi zarur. Mazkur o‘quv qo‘llanma aynan musiqa san‘atiga ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlari uchun bo‘lganligi va undan akademik imtixonlarda ijro etiladigan bastakorlar yaratgan asarlardan foydalanish mumkin.

Evropa nota vositasi orqali bizning milliy asarlarimizni to‘la ifoda etib bo‘lmaydi. Chunki ba’zi pardalar taxminiy ya’ni ijrochining ta’bi, didi va uslubiga moslanadi. Sharq musiqasining Yevropa musiqasidan farqi xam ana shunda. Misol uchun biron bir asarni ijro etayotgan sozanda, chalayotganda erkalatib gapirayotgandek ijro etishi, soz sasini hissiyotli o‘ynatishi mumkin. Bu amallarni nota orqali ifodalab bo‘lmaydi.

O‘quv qo‘llanmada notaga ko‘chirish jarayonida mazkur asarlarning ilk ijrochilari yoki eng yaxshi ijro etgan sozandalar magnit yozuvlaridan foydalandik. qo‘llanmaning boshqa musiqiy adabiyotlardan farqi va yutug‘i ham shunda. Nota matni oddiy va sodda yozilishi bilan birga hatto musiqa maktabi o‘quvchilari ham foydalanishi mumkin bo‘lgan asarlar ham mavjud.

Milliy musiqa madaniyatimizning har qachongidan chuqurroq va atroflicha o‘rganish va uni xalq ichida keng targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Binobarin, O‘zbek musiqa va raqs madaniyati qadim-qadimdan boy an‘analarga egadir.

Yurtimizda ansambllarning tuzilishi asosan o‘tgan asrning 1930–40 yillarida boshlangan. Mamlakatimiz bo‘ylab xalq hizmatida bo‘lgan sozanda va raqqosalarni to‘plab, katta jamoa qilib, millatimizga xos musiqiy janrlarini rivojlantirishgan hamda qayta tiklashgan. 1939 yili Moskvada birinchi bor O‘zbekiston kunlari o‘tkazilgan. Shunda Respublikamizga taniqli sozandalar, xonandalar va raqqoslar o‘z ijrolari bilan qatnashgan. Shunda Mukarrama Turg‘unboeva sozandalar ansambli bilan “Tanovor”, Usta Olim Komilov bilan “Doira raqsi” kabi ijrolari katta muvaffaqiyat qozongan. Shu sabab bu asarlar yangi zamon raqs va musiqa uyg‘unligida yaralgan dastlabki qadam edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida ansambllardan agitbrigadalar tuzilib, ijro dasturlari kengayib borgan. 1940–60-yillarda ko‘plab ashula va raqs ansambllari tuzilib, poytaxtimizda ilk bor “Bahor” ansambli tuzilgan. Shundan so‘ng birin ketin, “Shodlik”, “Lazgi” va undan tashqari har bir viloyatda o‘z ansambllari tashkil etilgan. Mustaqillik yillarida ansambllarning soni tobora ortdi. Bular safiga “O‘zbekiston”, “Tanovar”, “Yetti go‘zal” “Zarafshon”, va ko‘plab ansambllarni ko‘shish mumkin. Bu ansambllarning takrorlanmas o‘z ijro dasturlari bo‘lib, orasidagi raqobat – rivojlanishga olib keldi. Ular yangi-yangi dasturlar tuzib, biri–birini takrorlanmas edi. Hatto ba’zi ansambllar o‘z ijro yo‘nalishiga ega edi. Bundan tashqari vohalarga xos dasturlar ishlab chiqib, xalqimizning ma’naviy ehtiyojlarini qondirar edilar.

Ansambllar asosan o‘z ijro dasturlarida musiqa va raqsning uyg‘unligi borasida ko‘plab izlanishlar olib borishgan. Musiqiy matndagi taasurolarni raqs harakatlari

orqali tomoshabinga osonroq etib borishi, xonandalar xonish qilganida ularning she'riy matnlaridan kelib chiqib, yangidan–yangi harakatlar o'ylab topilgan. Bu san'at asosan har bir fikrni san'atkorona etkazib berish orqali janrlar orasida o'z aksini topadi. Mumtoz kuylarni ma'no mohiyatidan kelib chiqib, eng go'zal va nafis, millatimizga xos raqs harakatlari bilan ifodalaydi.

Milliy sozandalik san'atini egallash maqsadida bo'lgan har bir yosh ijodkor mahoratini oshirish, tovush ohanggi (intonatsiya), ijro ruhiyati, ichki hissiyoti kabi xususiyatlarni bilishi va bundan tashqari ma'lum maktab namoyondalariga ergashishi lozim. Shunda yillar davomidagi mashqlar evaziga o'z yo'li, o'z ijrochilik uslubi paydo bo'ladi. Shunda milliy mumtoz asarlarimizni musiqiy matnini buzmagani holda o'z yo'lga solib ijro etishi mumkin. Qo'llanmada berilgan murakkab maqom asarlari aynan ijro yo'lini to'g'ri va aniq o'rganish uchun, bo'lajak sozandalarga biroz bo'lsada yordam berishi uchun yozildi.

CHOLG'U QISMLAR SHARHI

Musika ta'limida asarlarning tub mohiyatini anglab o'zlashtirish doimo ijobiy natijalarga olib kelgan. Shu bois, har bir o'quvchi yoki boshlang'ich darajadagi sozandalarni o'zlashtirayotgan asarlarini to'laqonli anglab, tushunib olishlari muhim ekanligini e'tirof etmoqchimiz. Garchan nazariy ma'nalarda maqomlarning tarkibiy qismlari to'g'risida ma'lumotlar atroflicha va asosli keltirilgan bo'lsada, mavjud bu manba'larga tayangan holda mashg'ulotlar uchun qisqacha sharh berib o'tishni lozim deb bildik.

Tasnif – *arabcha* so'z bo'lib, yaratilgan asar – *kuy* demakdir. Har bir maqomlarning cholg'u bo'limlari tasnif kuy yo'llari bilan boshlanadi. Uning takt-ritm o'lchovi 2/4, o'rniga qarab esa 4/4 hissada kelib kuy jarayonida o'zgarmay davom etadi. Tasniflarning doyra usullari deyarli bir xil bo'lsada, ba'zan kuy xarakteriga qarab qisqaroq shakldagi ko'rinishini ham uchratish mumkin. Tasniflar maqomlarning har birida mustaqil musiqiy mavzulariga egadirlar. Ularning kuy-ohang asoslari maqomi hisobiga bir biridan bevosita farqlanib boradi. Aytish joizki, ularning kuy bo'laklari ohang mazmunidan kelib chiqib goh uzun, gohida qisqa bo'lib, xona va bozgo'ylari turlicha bo'lishi ham mumkin. Tasniflar maqom cholg'u yo'llarini boshlang'ich qismi bo'lib, o'z shakliga va albatta keng ovoz ko'lamiga egadir. Tasnif maqomlarning cholg'u yo'lini asosiy mavzu, negizi bo'lib ohang va ma'lum kuy bo'laklari o'zidan keyin keladigan qismlarda ham ritmik yoki kuy variatsiyalari sifatida ham uchrab turadi.

Tarje' - *arabchadan* qaytarish, takrorlamoq ma'nolarini anglatadi. Takt-o'lchovi 2/4. O'z ohangida ijro etilayotgan kuyni turli balandliklarda takrorlanib, ritmik va melodik variatsiyalar shaklida kelishi aynan tarje'ga xos xususiyatdir.

Gardun - “gardoniya” aylanuvchi, aylanma yo'lli, osmon gardishi, aylana, taqdir degan ma'nolarni anglatadi. Musika yunalishida esa Gardun ma'lum doyra usulining va shu bilan usul jo'rligida muayyan lad /maqom/ga muvofiq ravishda ijro etiladigan kuy hisoblanadi. Uning takt –o'lchovi juda

murakkab, 8/4 (2/4+3/4+3/4) lardan iborat. Gardunda bozgo'y har bir xonadan keyin takrorlanavermay, bir kuy muayyan tugab bo'lgandan keyin kelishi ham Gardunga xos xususiyatlardandir.

Muxammas - beshlangan, beshlik ma'nosini anglatadi, u ibora asosan g'azaliyotda keng qo'llanilib kelinadi. She'riyatda esa besh misradan tuzilgan she'r shaklidir.

Muxammasning takt-o'lchovi 2/4 yoki 4/4 (hajmli), hissali metro-ritmik o'lchovga asoslangan va, umumiy doyra usuli 16 - takti tashkil etadi. Sodda qilib aytganda, 16-hajmi doirasida bir butun kuy jumlasini tashkil topgan va bu hajm doimiy qaytarilishlarda saqlanib qolinadi. Uning xarakterli tomoni ham shunda, ya'ni xona va bozgo'ylarning doyra usuli bir xil o'lchovdadir. Kuyda xona bozgo'ylarining ketma-ketligi vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin. Odatda xona bozgo'y bilan almashib keladigan bo'lsa, ayrim hollarda, ayniqsa avj pardalarida 2-3 xonalar bozgo'ysiz qaytarilishi ham amaliyotda uchray turadi. Muxammaslarda bir-biriga o'xshab ketiladigan ko'plab ohang bo'lakchalarini uchratish tabiiy hol. Aslida ularni faqatgina qaysidir jihatidan o'xshatish mumkin xolos. Bundan maqsad bir ohang bo'lagi qaytarilaveradi degan fikrga borish noo'rindir. Bu muxammaslarni yana o'ziga xos tomonlardan deb qabul qilish lozimdir. Muxammaslarning bu xususiyatlari janrning nafaqat shakli, balki badiiy-estetik qiymatini ham kamaytirmay, aksincha ularni yanada rang-barangligini ta'minlab, kuyni tugallanishiga beixtiyor ko'maklashadi.

Saqil - arab tilidan og'ir, vazmin, cho'zilgan ma'nolarni anglatadi. Musiqada esa murakkab doyra usulining nomidir. Takt-o'lchovi 2/4 va 4/4 hissali o'lchovlar almashinuvida yigirma to'rt takti o'z ichiga oladi. Bu benazir asarlarga juda ham ta'riflarni keltirish mumkin. Mushkilot yo'lidagi kuylarni ikki va undan ortiq cholg'u sozlarda ja'm bo'lib ijro etilishi eshituvchiga huzur-halovat baxsh etadi. Albatta, bunday yuksak saviyaga erishish uchun ansambldagi sozlarni sadolanishiga e'tiborni qaratish va diqqat bilan ijro etish zarurdir.

Ushbu o'quv qo'llanmadan ansambl ijrochilari yanada kengroq foydalanishlarini inobatga olib, shashmaqomning birinchi guruh sho'balaridan Saraxborlar va ularning taronalarini nota matnini berishni ham lozim deb topdik.

Saraxbor - Saraxbor ikki so'zdan tuzilgan bo'lib, "sar" - tojikcha bosh, boshlanish, "axbor" arabcha "xabar" so'zining ko'pligidir, ya'ni saraxbor-axborot beruvchi bosh kuy, ashula, maqomlar ashula bo'limining asosiy, bosh mavzusidir.

Odatda Saraxborlarda bir ladga tayanmasdan bir necha lادلarni badihaviy qo'llash ko'nikmalari mavjuddir. Shuning uchun Saraxborlar o'z asosiy lad tonalligidan ko'pincha o'rta qismida (ayniqsa avjlarda) boshqa ladga o'tadi. Bunday tonalliklarni o'zaro almashuvi maqomlarning ma'lum ichki qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Maqomlarni ziyraklik bilan ijro qilganimizda, ma'lum lad tonallik tizimi mavjudligini ko'ramizki, bu kuylar o'zining rang-barangligi bilan asarlardagi turkumiylikni ta'minlashda muhim omillardan hisoblanadi. Saraxborlarning doyra usul sur'ati vazmin bo'lib, ularni o'zlashtirilishi biroz mushkul kechishi mumkin. Saraxborlarga xos murakkab va nozik ashulla yo'llarini va ularning mazmunini tinglovchiga yetkazish uchun

sozandalar ansambli ijrochilaridan yuksak mahoratli va tajribali bo'lishi lozimligini talab etadi.

Yirik asarlar hisoblanmish Saraxborlarni ijro etishdan avval, har bir ansambl ijrochisi maqomlarimizni kuy rivojlanishida o'ta dolzarb vazifani bajaruvchi namudlar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari talab etiladi. Bu kabi namudlar (ko'rinishlar) cholg'u ansamblida o'z aksini topsa, asarni to'liq ijrosini ta'minlash biroz oson kechadi. Saraxborlarni tarkibiy jihatdan ko'rinishi juda murakkabdir.

Ansambl – doyra, g'ijjak, nay, qo'shnay, chang, rubob, dutor, tanburdan iborat bo'lib, bir muncha ularni soni ko'paytirilgan bo'lishi ham mumkin. Amaliyotdagi tajribalar ko'rsatadiki, sozandalarning sonini ko'payishi, asarlarni o'zlashtirish jarayonini bir muncha mushkillashtiradi. Bunday hollarda har bir cholg'u sozlaridan kerakligini tanlab olish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida nomlari zikr etib o'tilgan kuylarni ansambl jo'rligida ijro etishni bir oz engil kechish imkoniyatlari ham mavjud. Bunga asosan asardagi xonalarni sozlarga biriktirish bilan erishiladi. Buning uchun ansambl o'qituvchisini sozlar haqida tasavvuri hamda ularning tovush ko'lami imkoniyatlarini bilishi muhim ekanligini eslatib o'tish joizdir. Chunki, yuqori pardalarda ijro etiladigan xonalarni dutor, qo'shnay yoki ud sozlariga tavsiya etish maqsadga muvofiq emas. Ularni jarangi yetmaydi va kutilgan sadolanishni bermaydi. Shu bois, jarangi bulardan ortiqroq bo'lgan sozlar g'ijjak, nay, rubob, chang ijrolari ovoz ko'lami har tomonlama keng imkoniyatga egaligini inobatga olib va kuy mazmunidan kelib chiqib taqsimlash o'rindir. Odatda, sozlar taqsimoti cholg'u yo'li yoki ashula yo'lida bo'ladimi, alohida e'tiborni talab etadi. Cholg'u musiqasining ansambl talqini bu uslubni taqozo etadi. Maqom ijrochiligida uning badiiy-estetik jihatlarini namoyish etish uchun ushbu uslub qo'llaniladi.

Asardagi hissiyotlarni sozlarda aks ettirish mezoni ham ahamiyatli tomonlardan hisoblanadi. Musiqada bu jarayon «dinamika» mezoni deyiladi. Unda bezaklar va nola-qochirimlarni haddan ziyod bo'lmasligiga, bir xillikka, ijro etilayotgan ohangni past-balandligiga (f - p) e'tibor berish kerak. Maqom ijrochiligi yoki umuman cholg'u ijrochiligida dinamik unsurlarni joyida va me'yorida ishlatish juda ahamiyatlidir. Asarning boshidan oxirigacha baland (f yoki ff), qattiq «hammaga yetadigan» ovozda ijro etish bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Musiqaning bevosita ijrochilik mezonini «jonli jarayoni» deyilishining ham sababi shunda. Jonli jarayonning esa, o'z qoidalari mavjud. Unga binoan musiqa ijrochiligida nafosat va hayrat o'z sehrini namoyish etishi lozim. Nafosat esa cholg'u sozlarni talqinida namoyon bo'lib, tinglovchi hayratiga sazovor bo'ladi. Ana shu mezonga, musiqada «dinamika» deyiladi. Musiqiy merosimizning boy va serqirraligi barchaga ayon. Uning tarkibida shunday benazir xususiyatga ega bo'lgan asarlar mavjudki, ular turli tarkibdagi ansamblalarda turlicha jozibada yangrashishi mumkin.

Masalan: Munojot kuyini tanbur sozini o'zida maromiga etkazib ijro etish mumkin bo'lsada, unga yoniga dutorni jo'r bo'lishligi bilan o'zgacha bir zavq

paydo bo'ladi. Merosimizda durdona kuy ohanglar ko'p, ularni sozlarga to'g'ri taqsimlabgina ansambl salohiyatini yanada yuqori bosqichlariga erishiladi.

Har bir ansamblning o'z o'rnini, tarkibi va rahbari bo'lishi muqarrar. Ansamblning ijroviy jihatlari ana shu tarkib asosida shakllanadi. Shuning uchun ham muayyan bir kuyning ansamblar talqini doimo o'zgacha bo'ladi. Jumladan: «Navrozi ajam yoki Nasrulloi» musiqiy namunasi O'zbekiston xalq artisti A. Ismoilov rahbarlik qilayotgan maqomchilar ansambli ijrosida bir go'zal tarannumga ega bo'lsa, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi "An'anaviy cholg'u ijrochiligi" kafedasi F. Sodiqov nomli ansamblida o'zgacha joziba bilan yangrashini guvohi bo'lamiz.

Sozlar taqsimotini ansamblar ijrochiligida muhim ahamiyat kasb etishi va o'zlashtirish jarayonining e'tiborli jihatlardan ekanligini nazarga olib «Saraxbori Buzruk» musiqiy namunasini sozlar talqiniga bo'lib chiqamiz. Shoyad yosh maqom ijrochilari ansamblariga namuna bo'lib xizmat qilsin. Odatga ko'ra, har bir cholg'uchilar jamoasi, ya'ni ansambl o'z tuzilishi, tarkibi, rahbari va shunga mos ijro uslub tanlab oladi. Shunga ko'ra, katta ansambl, kichik ansambl, kvartet ansamblardan tarkib topadi. Ijro amaliyoti esa ansambl imkoniyati va cholg'ularning mutanosibligiga asoslanib boradi.

Avvalo, ansambl sozandalarini jamoa bo'lib ijro etish ko'nikmalarini jonlantirib, bir xillik tamoyilda ijro etishga sozlash juda katta ahamiyatga egadir. So'ngra, ansamblni «bir cholg'u» o'rnida tasavvur etib «registrarlar» taqsimoti bilan ijroni turli cholg'u sozlarga bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda har bir cholg'uning tembral va ijroviy imkoniyatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, sozandalar ansamblining asosiy vazifasi xonandalarga jo'r bo'lish hisoblanadi. Mazkur qo'llanmada asosiy e'tibor shu jihatga qaratilgan. Yana shuni ham ta'kidlamoq lozimki, mukammal sozlardan biri xuddi ashulachidek yaxlit asarni ham ijro etishi mumkin.

O'quv qo'llanmada Saraxborlardan birini ansamblga moslashtirib, cholg'ularga taqsimlab ijro etilgan variantini namuna sifatida tavsiya etamiz.

Asar Daromad, Miyonhad, Dunasr, Namudi uzzol, Muxayyari Chorgoh, avji Muxayyar va Furovarddan tarkib topgan. Saraxbori Buzruk – reprizasi qisqartirilgan murakkab uch qisimli AVA1 shaklidir. Uning birinchi qismi-"A" o'z navbatida uch qismdan Daromad (40-takt), Miyonhad (40-takt) va Dunasr (57 -takt) dan iborat. Saraxborning ikkinchi qismi-"V" o'z navbatida ikki qismdan iborat bo'lib, bunda avj sifatida "Namudi Uzzol" (49-taktlar) va "Namudi Muxayyari Chorgoh" (87-takt) va Furovard esa (40-takt) lardan foydalanilgan. Namudlarning yetakchi ladga qaytaruvchi va Saraxbor melodik- intonasion asosga ulovchi sifatida esa "hang" tushirma keladi. Saraxbor reprizasi, ya'ni uchinchi qaytarma qismi A1 birinchi qism A dagi Dunasrning qisqargan va ma'lum darajada o'zgartirilgan variantidan iborat. Saraxbori Buzrukda Namudi Uzzol, Namudi Muxayyari Chorgoh namudlari keladi.

Ohang bo'laklarini cholg'u ansambliga taqsimoti va ketma-ketligini, turli variantlarda (sharoitdan kelib chiqib) tuzish maqsadlidir. Tavsiya etilayotgan namunada, asar rivojining dramaturgik holatiga xos tuzilgan va ohang bo'laklari ketma-ketligi bir tartibga keltirilgan. Ansambl tarkibida 1 ta chang, 2 ta tanbur, 2 ta

dutor, bitta rubob, hozirda ud sozi qo'llaniladi, bitta nay, bitta qo'shnay, ikkta g'ijjak va doyra cholg'ulari o'rin oladi.

Asar osoyishtalik vaziyatda, o'rtacha sur'atda va o'rtacha ovoz tarannumida daromad qismi ijro etiladi. «Saraxbor» kuyining asosiy mavzusi hamda asarning asosiy g'oyasi bilan tanishtiriladi. Asarning ana shu qismi, go'yoki Saraxbor olamiga olib kirishi lozim. So'ngra unda tasavvuriy sayohat boshlanishi, birin-ketin alohida cholg'ular yordamida tanishib chiqilishi ko'zlanadi. Shu nuqtai nazardan daromad, eng salobatli vazmin, shu bilan birga falsafiy ohanglar taratuvchi g'ijjak (yoki ansambl tarkibida sato bo'lsa) cholg'usi ijrosida yangraydi.

M. M. ♩=72=78



Daromad ijrosidan keyin ansambl birgallikda asarda keladigan bog'lovchi vosita bo'lagi Hangni ijro etadi.



Go'yoki, yangi nafas bilan harakat boshlanadi va umumiy cholg'u sozlar ishtirokida fikr ma'qullanayotgandek ta'ssurot tug'iladi. Uning natijasida ohangning yangi ufiqlari ochilishiga imkon tug'iladi. Agarda "hang" dan boshqa namudlarga o'tib ketilganda o'z-o'zidan tinglovchida g'aliz tasavur hosil bo'lishi mumkin. Bu vazifa umumiy ansambl zimmasiga yuklatiladi. Maqomot qoidasiga muvofiq "xang" lar shashmaqom, mumtoz va bastakorlik merosida muhim vazifani kasb etadi. Ansambl tarkibidagi cholg'ularda asardagi "hang" larni qaytarish esa bevosita kuy yaxlitligini ta'minlashga yaqindan ko'mak va uzviy bog'liqlikni hosil etishga yordam beradi. Shu bilan cholg'ular, ya'ni sozlar munozarasi boshlanadi.

Miyonhad – Shashmaqom tarkibiga kirgan asarlardagi muhim o'rini shundaki, o'zidan oldin va keyin keladigan "had" larni muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi. Shu bois, bu vazifa yangroq ovoz taratuvchi cholg'ulardan qashqar rubobi va changa berilgani ma'qul. Rubob va chang ijrosini ansambl birgalikda qo'llab quvvatlaydi va kulminasion bo'limigacha birga ijro etiladi. Bu

holat, buzruk modulidan (tonal ladidan) uzoqlashmagan holda keladigan avj va asardagi o‘z o‘rnida egallashga tayyor bo‘lgan boshqa namudlar kelishuvini ta‘minlash “miyonhad” ni vazifasini tashkil etadi. Buning natijasida kuy ruhini to‘laligicha saqlashga erishiladi. Shashmaqom tarkibidan joy olgan yoki mumtoz musiqa merosiga aylangan asarlarni barchasida “miyonhad”, o‘zidan oldin kelgan ohangni tonalligini yo‘qotmagan hoda uning keyingi rivojigi juda katta yordam beradi.




Dunasrdan oldin daromaddan keyin kelgan “Hang” to‘liq o‘zgarmagan holda qaytariladi.




Dunasrlar odatda shashmaqomning birinchi va ikkinchi shu‘balarida ohangni bir oktava yuqori pardada aynan takrorlanishini ko‘rsatadi. (namoyish etadi). Ammo, Saraxborlar bundan mustasno. Dalilimiz shundan iboratki, asariyat Saraxborlarda dunasr bir oktava yuqori pardada biror o‘zgarishlar bilan beriladiki, daf‘atan buni ilg‘ab olish biroz mushkilroq bo‘lishi ham mumkin. Saraxborlarda “dunasr” odatga ko‘ra o‘zgacha ko‘rinishda ham kelishi mumkin. Asarni bu qismini ansambl birgalikda ijro etsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.



Dunasrdan keyin har bir “had” ni bog‘lovchi qo‘rilmalar sifatida asar tonalligidagi “hang” qayta biroz o‘zgarish bilan takrorlanib keladi.




Saraxbori buzruk asarini yanada mukamallashib va kompozisiyasini yanada kengaytirish uchun qo‘llaniladigan namud “namudi Uzzoldir”.



Odatda, Namudi Uzzol va Namudi Ushshoq birga ijro etiladi, ya’ni ketma-ketlikda. Lekin, bu asarda qoidadan biroz cheklanilgan. Chunki, bundan keyin keladigan Muxayari Chorgoh namudi – Ushshoq namudi bilan uyg‘unlasha olmaydi. Shu sababli ushbu hol asar uchun xarakterlidir. Ijro amaliyotida shuning uchun ham ehtirosli va nozik jihatlarni namoyish etish uchun ko‘proq nay va

g'ijak cholg'usi orqali sadolantirish (ansambl tarkibida nay bo'lsa), asarga o'zgacha joziba kiritadi.

Shu nuqtai nazardan Uzzol rivojlanib 8 taktidan ansambl ijrosida asta-sekin yuqori nuqtaga olib chiqib, o'z o'rnini "Namudi Muxayyari Chorgoh"ga beradi.



Ushbu kuy bo'lagi butun asarni boricha barqarorligini yaxlit ta'minlab, asarga to'raligicha joziba baxsh etadi.

Yuqori pardalarni g'ijjaklar zilu - bomida nolishi bilan ifodalab eng yuqori pardaga kuyni tayyorlab olib chiqadi va anambl sadosi unga madad bo'ladi. Shu yo'nalishda davom etib asosiy mavzu ansamblga topshiriladi. Ansambl avj tizimini yakuni sari pasayib boradi. "Namudi Muxayari Chorgoh" avjidan so'ng "Furovard" bilan bog'lanish uchun mutloqo o'zga sur'atdagi "hang" kiritiladi.

Ushbu "Hang" oldingilardan biroz farqi bo'lganligi bois, Tanbur va dutorlarda yangrasa eshituvchiga o'zgacha ruh bag'ishlaydi. (Izoh) Nega shundayligi maqom nazariyotchilari tomonidan hanuz tadqiq etilmagan. Xuddi shu holat Saraxbori Navoga ham ta'luqli. Chungi, kuy yo'nalishida bunday keskin burilishlar ishlatilishiga muayan sabablar bo'lishi kerak.

Asarni yakunlov qismiga yaqinlashganligi sababli "Furovard"ni Sato (yoki g'ijjak) cholg'usida ijro etilsa yanada ham o'zgacha nozik ehtirosli joziba o'z aksini topadi.



Shularni inobatga olib yuqorida bayon etilgandek, sozlar munozarasi savol-javobidan so'ng ansambl asardagi oxirgi "hang" bilan butun asarga xotima yasaydi.



Ushbu asarning turli variantlari ustoz sozandalar tomonidan o'ziga xos maqomda ijro etilgan. Turli cholg'ularga moslangan namunalarida asarning ijrochi va cholg'uning imkoniyatlari bilan ham xarakterlanadi. Shashmaqomning nasr bo'limining birinchi shu'basidan joy olgan Saraxbori Buzrukni taronalari haqida alohida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

Tarona - musiqa istilosida kuy yoki ohang ma'nosida keladi. Aruz ilmida esa she'rning ruboiy shaklini ifodalovchi nomdir. Taronalarni ijro etishda albatta, har bir cholg'u ijrochisidan maqomlarning nazariy bilimini yuksak darajada bo'lishini talab etiladi. Chunki, har bir cholg'uvchi ijro etilayotgan asarni nazariy tahlil qila bilishi alohida jarayon hisoblanadi. Binobarin, bundan ko'zlangan maqsad ijrochi bir taronadan, ikkinchisiga o'tishda ularning usulini to'liq o'zlashtirishlari zarur bo'ladi. Saraxbor taronalarining barchasida ohang bo'laklari qaytarishlari ko'p takrorlanganligi bois, ijrosini sozlarga sozlar munozarasi sifatida qo'llanildi. Taronalar usuli va ohangi ijrochida yaqqol namoyon bo'lsa, ijro etilajak asarni to'liq ifodasini hosil etadi. Ansambl tarkibidagi talabalarning usullarni o'zlashtirishlarini nazorati rahbar zimmasidadir.

Qo'llanmada Saraxbori Buzrukning taronalarini nota matni asl holatini saqlagan holda ba'zi notalarni ko'rinishdagi farqini inobatga olinmasa, ijro jarayonida ohangda hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi. Taronalar ohang bo'lakchalarini tez-tez takrorlanganligi bois, cholg'u ijrochilarining xotiralarida saqlanishi va o'zlashtirishlarini inobatga olib "sozlar taqsimoti" larga ajratib berildi. Taronalarning xususiyatli tomonidan yana biri shuki, ularning aksariyati yakka-yakka holda ma'lum bir ashula qiyofasini to'laligicha qoplay olmaydi. Ular birin - ketin ijro etilar ekan, bir-birlarini mazmunan to'ldirib va boyitib boradi. Ma'lum bir qoidaga asoslanib muayyan bir turkumni ham tashkil etadi. Ularga ijodiy yondoshib tahlil qilinganda xilma-xil, murakkab, ba'zida kuy qiyofasini nechog'liq orginal xususiyatlarga ega ekanligini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytish lozimki, maqomlarimizni yosh ijrochilarda singib borish jarayoni anchagina yillarni o'z ichiga oladi. Shunday bo'lsa ham yoshlarimizni kelajakda barkamol insonlar bo'lib, o'z kasbiga vafodor, vataniga sodiq, musiqa sohasida esa etuk bilimdonlarni tayyorlab, umuminsoniy fazilatlarini yanada ravnaq topishi va xizmat qilish uchun mos holda tarbiyalanishi biz murabbiylarning eng dolzarb vazifamiz ekanligini his etib yashamog'imiz bugungi va ertangi kunimiz shiori bo'lmog'i zarur. Yaratganga behisob hamdlar bo'lsinkim, beg'ubor, beg'araz, komil piru – ustozlar ezgu harakatlari bois, maqomlarimiz bizning kungacha etib keldi. Bizning oliy maqsadimiz bu merosni nota yozuvlari, saqlanib qolgan magnit tasmlari, likopchalar orqali yosh avlodga yetkazib, imkon qadar o'rgatib borishdir. Ba'zida bu sohada ham har xil qarashlar, munozaralar, bahslar yuritilib turadi. Lekin, biz bu turfa fikrlarga chalinmasdan, shu kungacha qanday tartibda o'rgatilib kelingan bo'lsa, shu an'anani davom ettirib borish tarafdorimiz. Ilm bo'lgandan keyin fikr- qarashlar ham o'zgacha bo'ladi.

Jaloliddin Rumiyning /Fiyhi ma fiyhi/ * **Ichindagi ichindadir**⁶ asarida shunday hayratomuz fikr bildiradiki: - bilganlar bilan bilmaganlar bir majlisda ishtirok etib, o'qilanayotgan va'zdan hamma yig'lashar edi. SHunda bilganlar bilmaganlarga qarata; - nega yig'lashadi, ustiga-ustak tilni ham umuman tushinmaydiku? Bilganlar orasida bor yo'g'i 10 dan biri zo'rg'a anglab tushinyapti, ular bo'lsa yig'lab siqtashadi? Bu holat haqida J.Rumiyan

⁶ Жалолииддин Румий. Маънавий Маснавий 7-бет.

so‘rashganda: So‘zning o‘zini tushinishga hojat yo‘q, aslida mohiyatini, maqsadini anglamoqlikni tavsiya etib o‘tadi. Nihoyatda bu fikr bizning ham faoliyatimizda qo‘l keladigan yo‘llardan hisoblanadi. Ansambl fani uchun tanlangan dastur tajribali ustozlar bilan maslahatlashgan holda, kelajakda sozandalarning yanada ravnaqi uchun bir vosita bo‘lib xizmat qilishiga umid bog‘lab qolamiz.

Biz qo‘llanmada baholi qudrat Saraxbori Buzrukni taronalari bilan ansambl ijrosiga moslashtirilgan talqin yo‘lini berishga harakat qildik. Avvalo har bir ustoz ushbu uslub asosida o‘zi sozlar bo‘linishini ta‘minlashi kerak (sharoitdan kelib chiqib). Qolaversa, biz tavsiya etgan cholg‘ular taqsimoti, talabalar amaliyotida ko‘rib chiqilgan va ijrochilik uchun mos jihatlari mavjuddir. Shashmaqom ashula bo‘limining qolgan tarkibiy qismlarini mana shu uslubda cholg‘ularga taqsimlash har bir ansambl rahbarining ixtiyoriga havola. Bunda bizning tajribamiz dasturi amal bo‘lsa ajab emas. Shu bois biz qo‘llanmaning nota bo‘limida Saraxbori Buzrukning taronalari va cholg‘u bo‘limining barcha tarkibiy qismlari nota ko‘rinishda berildi.

Sozandani tajribadan kelib chiqib, kuyidagi tartibda ijro dasturiga asarlar tanlab, o‘zlashtirish uchun tavsiya etiladi.

1-bosqich 1- semestr

Buzruk maqomi - Tasnifi Buzruk, Tarje‘i Buzruk, Garduni Buzruk, Muxammasi Buzruk, Muxammasi Nasrullovi, Saqili Islim, Saqili Sulton. Talabalarining mustaqil o‘zlashtirishlari uchun: Toshkent-Farg‘ona yo‘lidan: Yolg‘iz 1-2, Na xushdirkim, Farg‘onacha Tanavor.

1- bosqich 2- semestr

Saraxbori Buzruk 1-6 taronalari, Talqini Uzzol taronasi, Nasrullovi 1-3 (ashula yo‘li) taronasi, Nasri Uzzol, Ufori Uzzol.

Mustaqil dars uchun: Mug‘ulchai Buzruk(turkum), Savti Sarvinoz, Iroq(turkum), Rok(turkum).

2- bosqich 3- semestr

Rost maqomi –Tasnifi Rost, Garduni Rost, Muxammasi Rost, Muxammasi Ushshoq, Muxammasi Panjgoh, Saqili vazmin, Saqili Rak-rak.

Toshkent-Farg‘ona yo‘lidan: Qalandar 1- 5, Ushshoqlar (ashula – kuy yo‘llari), Nasrullovi 1- 5 (chog‘u yo‘li), Ajam, Navro‘zi ajam, Ajam taronalari.

2-bosqich 4- semestr

Saraxbori Rost 1- 6 taronalari va suporishi, Talqini ushshoq taronasi, Nasri ushshoq taronasi, Navro‘zi Sabo, Talqinchai Navro‘zi Sabo. Ufori ushshoq.

Mustaqil dars uchun: Savti ushshoq (turkum), Savti Kalon (turkum).

3- bosqich 5- semestr

Navo maqomi- Tasnifi Navo, Tarje‘i Navo, Garduni Navo. Nag‘mai Orazi Navo, Muxammasi Bayot, Muxammasi Xusayni, Saqili Navo.

Mustaqil dars uchun:

Toshkent-Fargʻona yoʻli: Bek Sulton 1- 2, Nagʻora Bayoti, Bayotlar, Chapandozi Bayot. Surnay navo ijro yoʻlidan: Surnay Dashnoboti.

Saraxbori Navo 1-2 taronalari, Talqini Bayot, Nasri Bayot taronalari, Orazi Navo 1-3 taronasi, Xusayni Navo, Ufori Bayot.

Mustaqil dars uchun: Savti Navo(turkum), Mugʻulchai Navo(turkum), Mustahzodi Navo(turkum).

3-bosqich 6- semestr

Dugoh maqomi – Tasnifi Dugoh, Tarjeʻi Dugoh, Garduni Dugoh, Peshravi Dugoh, Saqili Dugoh, Muxammasi Dugoh, Muxammasi chorgoh, Muxammasi Xoʻjaxoji, Muxammasi Chorsarxona, Saqili ashkullo.

Mustaqil dars uchun: Toshkent- Fargʻona yoʻlidan: CHorgohlar, Mushkiloti Dugoh, Munojot- 1-5, Bozurgoniy.

Saraxbori Dugoh 1-6 taronalari, Talqin va Nasri Chorgohlar taronasi, Orazi Dugoh, Dugoh Xusayni 1-5, Ufori Chorgoh, Savti Chorgoh(turkum), Mugʻulchai Dugoh (turkum), Qalandari Dugoh, Samandari Dugoh, Saraxbori Oromijon, Ufori Oromijon, Chorgoh 1-6.

4- bosqich 7- semestr

Segoh maqomi – Tasnifi Segoh, Tarjeʻi Segoh, Hafifi Segoh, Garduni Segoh, Muxammasi Ajam, Muxammasi Mirzo Hakim, Saqili Bastanigor.

Mustaqil dars uchun: Toshkent- Fargʻona yoʻlidan: Katta Segoh, Segoh (Toʻxtasin Jalilov), Miskin 1- 5, Mushkiloti Segoh, Nasri Segoh, Segoh (cholgʻu yoʻli), Giryas 1- 2, Galdr 1- 2.

Saraxbori Segoh 1-6 taronalari, Talqini Segoh taronasi, Navroʻzi Xoro 1- 3 taronasi, Navroʻzi Ajam tarona, Ufori segoh.

Mugʻulchai Segoh (turkum), Figʻon 1- 2, Nimchoʻponi, Ilgʻor, Guluzorim.

4-bosqich 8- semestr

Maqomi Iroq - Tasnifi Iroq, Tarjeʻi Iroq, Muxammasi Iroq, Saqili avval (1), Saqili duvvum (2), Saqili Kalon.

Mustaqil dars uchun: Toshkent- Fargʻona yoʻlidan: Toshkent Iroqi (ashula yoʻli), Margʻiloncha Iroq (J.Sultonov), Surnay Iroqi, Sarparda, Choʻli Iroq, Sharob 1–2, Eshvoy (ashula va cholgʻu) yoʻllari. Saraxbori Iroq 1-6 (taronalari), Muxayari Iroq 1-4(taronalari), Chambari Iroq Uforisi.

Ushbu dasturda nomlari bayon etilgan barcha asarlarning nota yozuvlari va barcha kerakli boʻlgan maʼlumotlar mavjud boʻlganligi sababli qayta takrorlamaslikni joiz deb topdik.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. Z.Egamberdiyev, Egamberdiyeva. Al-Kindiy. “Sovet O‘zbekistoni san’ati” jurnali. 10-son, 31-bet. T., 1978.
2. D.Rashidova. Darvesh Ali Changiy. “Sovet O‘zbekistoni san’ati” jurnali. 10-soni 19 bet. T., 1978.
3. A.Navoiy, «Mahbub ul qulub». T., 1983.
4. A.Fitrat, O‘zbek musiqasi to‘g‘risida, « Alanga» jurnali, 2-soni 21bet, 1928 yil.
5. I.Rajabov. Maqom masalalariga doir, T., 1963.
6. Y.Rajabiy. «Shashmaqom». T., 1-jild, 1970.
7. Y.Rajabiy. «Shashmaqom». T., 2-jild, 1970.
8. Y.Rajabiy. «Shashmaqom». T., 3-jild, 1970.
9. Y.Rajabiy. «Shashmaqom». T., 4-jild, 1972.
10. Y.Rajabiy. «Shashmaqom». T., 5-jild, 1973.
11. Y.Rajabiy. «Shashmaqom». T., 6-jild, 1975.
12. O‘zbek xalq musiqasi, T., 1-jild, 1955.
13. O‘zbek xalq musiqasi, Toshkent, 2-jild, 1957.
14. A. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi, «Fan» 1993.
15. Y.Rajabiy. «Musiq merosimizga bir nazar» T., 1978.
16. Ishoq Rajabiy. «Maqomlar». San’at nashriyoti, T., 2006.
17. O.Matyokubov. «Maqomot». T., 2004.
18. O.Matyokubov. Buxoro Shashmakomiga bir nazar. T., 2014.
19. O.Matyokubov. Uzbekska klassicheskaya muzyka. T., 2015.
20. J.Rumi. «Ma’naviy Masnaviy». T., 1999.
21. I.Akbarov. «Musiq lug‘ati». T., 1987.
22. I.Rajabov. “Maqomlar”. T., 2006.
23. R.Abduazimov. Cholg‘u ijrochiligi (rubob). T., 2016.
24. R.Qosimov. An’anaviy cholg‘u ijrochiligi (rubob). T., 2016.

Tasnifi Buzruk

M.M. ♩ = 90

1-xona (ansambl)

Бозгуй
дугор-танбур

The musical score for "Tasnifi Buzruk" is written in 2/4 time with a tempo of 90 beats per minute. It consists of ten staves of music. The first staff is marked *mf* and includes the label "1-xona (ansambl)" and "Бозгуй дугор-танбур". The second staff continues the melody. The third staff is marked "2-xona (chang, ud)". The fourth staff is marked "Bozgo'y (ansambl)". The fifth staff is marked "3-xona (rubob)" and *f*. The sixth staff is marked "Bozgo'y (ansambl)" and *mf cresc.*. The seventh staff continues the melody. The eighth staff is marked "4-xona (g'ijjak)" and *f cresc.*. The ninth and tenth staves continue the melody. The score includes various musical notations such as eighth notes, quarter notes, and rests, as well as dynamic markings like *mf*, *f*, and *cresc.*

Bozgo'y (ansambl)

f cresc.

5-xona (qo'shnay)

mf

Bozgo'y (ansambl)

6-xona (ansambl)

f

Bozgo'y


atacca

The image shows a musical score for a piece titled "Bozgo'y". It consists of four staves of music. The first staff contains a melody with eighth and sixteenth notes. The second staff continues the melody with a half note and a quarter rest. The third staff begins with the title "Bozgo'y" and features a more complex melody with eighth and sixteenth notes, ending with a repeat sign and a fermata. The fourth staff continues the melody with a long slur and ends with a repeat sign and a fermata, followed by the instruction "atacca".

Tarje' Buzruk

M.M. ♩ = 116

1-xona (dutor, tanbur)



2-xona (ansambl)



(dutor, tanbur)



(ansambl)

3-xona



Bozgo'y (ansambl)

mf



4-xona (g'ijjak)



Bozgo'y (ansambl)

5-xona (ansambl)

mf

Bozgo'y

(dutor-tanbur)

6-xona (ansambl)

f

7-xona (ansambl)

f

(g'ijjak)

tr

(rubob-chang)

tr

(dutor-tanbur-ud)

mf

Bozgoy (ansambl)

mf

8-xona (ansambl)

Bozgo'y (ansambl)

atacca

The musical score is written for a 7-xona ensemble. It consists of ten staves of music in G major (one sharp). The first staff begins with a treble clef and a key signature of one sharp. The music is in 2/4 time. The first staff has a dynamic marking of *f* (forte). The second staff has a dynamic marking of *mf* (mezzo-forte). The third staff has a dynamic marking of *mf*. The fourth staff has a dynamic marking of *mf*. The fifth staff has a dynamic marking of *mf*. The sixth staff has a dynamic marking of *mf*. The seventh staff has a dynamic marking of *mf*. The eighth staff has a dynamic marking of *mf*. The ninth staff has a dynamic marking of *mf*. The tenth staff has a dynamic marking of *mf*. The score includes various musical notations such as eighth notes, sixteenth notes, and rests. There are also dynamic markings like *f*, *mf*, and *atacca*. The score is divided into sections by double bar lines and repeat signs.

Garduni Buzruk

M.M. ♩ = 88

Bozgo'y (Ansambl)


1-xona (rubob)



2-xona (ansambl)



3-xona (g'ijjak)



Bozgo'y (ansambl)



4-xona



Bozgo'y (dutor-tanbur)



5-xona (ansambl)



The musical score consists of six staves of music in G major (one sharp). The time signatures are 3/4, 2/4, 3/4, 2/4, 3/4, and 2/4, alternating between the first and second staves. The notation includes eighth and sixteenth notes, often beamed together, and rests. The piece concludes with a double bar line.

Bozgo'y

rit.


attacca

Muxammasi Buzruk


M.M. ♩ = 65-70

1-xona (ansambl)

dutor-tanbur



ansambl



Bozgo'y (rubob)



ansambl



2-xona





Bozgo'y (dutor-tanbur)



ansambl








Muxammasi Nasrulloi

M.M. ♩ = 65-70

1-xona (ansambl)




Bozgo'y (g'ijjak-nay)



ansambl



2-xona (rubob)




Musical score for a piece in G major (one sharp). The score consists of ten staves. The first staff is an instrumental introduction. The second staff is labeled "Bozgo'y (ansambl)" and includes a *mf* dynamic marking. The third staff continues the instrumental texture. The fourth staff features a trill ornament. The fifth staff is labeled "3-xona (nay)". The sixth staff is labeled "ansambl" and includes a long horizontal line with a bow-like symbol underneath. The seventh staff continues the instrumental part. The eighth staff is labeled "Bozgo'y" and includes a *mf* dynamic marking. The ninth and tenth staves conclude the piece with various melodic and rhythmic patterns.



Saqili islimi

M.M. ♩ = 66


1-xona (chang-rubob)




dutor-tanbur-ud



ansambl



2-xona (rubob)



g'ijjak

mp



The musical score is written for a piece in G major (one sharp). It consists of ten staves of music. The first staff is a single melodic line. The second staff is labeled "ansambl" and begins with a mezzo-forte (*mf*) dynamic. The third staff is labeled "3-xona (dutor-tanbur)" and includes a repeat sign with a mezzo-forte (*mf*) dynamic. The fourth staff continues the melodic line. The fifth staff is labeled "ansambl" and begins with a forte (*f*) dynamic. The sixth staff continues the melodic line. The seventh staff continues the melodic line. The eighth staff is labeled "4-xona (rubob-chang-nay)" and includes a repeat sign with a forte (*f*) dynamic. The ninth staff is labeled "ansambl" and begins with a piano (*p*) dynamic. The tenth staff continues the melodic line.

5-xona (g'ijjak)

f

ansambl

mf

6-xona (g'ijjak)

dutor-tanbur

mf

rubob

ansambl

Saqili Sulton

M.M. ♩ = 60-63


1-xona (ansambl)




dutor-tanbur-ud



rubob



Bozgo'y (ansambl)



2-xona (dutor-tanbur)

mf

ansambl

Bozgo'y (g'ijjak)

rubob

3-xona (ansambl)

f

nay

ansambl

mf

Bozgo'y (dutor-tanbur)

ansambl

4-xona (dutor-tanbur)

ansambl

mp

Bozgo'y (dutor-tanbur)

chang

ansambl

